Key words: investments, syndicated loans, infrastructure bonds, modernization, export, investment climate, risk, diversification.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования финансирования инвестиций основного капитала в Узбекистане посредством рыночных механизмов, а именно синдицированных кредитов и инфраструктурных облигаций, выявлено существующие проблемы и разработано научные предложения и рекомендации, направленные на их устранение.

Ключевые слова: инвестиции, синдицированные кредиты, инфраструктурные облигации, модернизация, экспорт, инвестиционный климат, риск, диверсификация.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, raqobat muhitining kuchayishi hamda infratuzilmaga bo'lgan talabning ortishi mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb qilish masalasini strategik ahamiyatga ega yo'nalishga aylantirmoqda. Ayniqsa, transport, energetika, kommunal xizmatlar, sanoat va raqamli infratuzilmani rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bu esa uzoq muddatli va yirik hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Hozirgi sharoitda ko'plab mamlakatlarda davlat budjeti mablag'lari infratuzilma ehtiyojlarini to'liq qoplash imkoniyatiga ega emas. Shu bois xalqaro amaliyotda sindikatlashgan kreditlar, infratuzilma obligatsiyalari, davlat-xususiy sheriklik va kapital bozorlari orqali moliyalashtirish kabi bozor mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu instrumentlar bank tizimi, institutsional investorlar va kapital bozorlarining hamkorligini ta'minlagan holda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoatni diversifikatsiyalash va hududiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda bank kreditlari muhim va barqaror manba sifatida xizmat qilmoqda. Uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish hamda risklarni taqsimlash mexanizmlarini



yanada takomillashtirish yirik infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur sharoitda sindikatlashgan kreditlar va infratuzilma obligatsiyalari mexanizmlarini rivojlantirish O'zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish, bank tizimi yukini optimallashtirish va institutsional investorlarni jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Sindikatlashgan kreditlar banklar o'rtasida risklarni samarali taqsimlash imkonini bersa, infratuzilma obligatsiyalari uzoq muddatli kapital bozori resurslarini investitsiya jarayoniga faol jalb qilish imkonini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarni sindikatlashgan kreditlar va infratuzilma obligatsiyalari orqali moliyalashtirishni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Maqolaning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, mazkur moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish mamlakatda uzoq muddatli investitsiya resurslarini kengaytirish, davlat budjetiga tushadigan yukni optimallashtirish, xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlar zamonaviy moliya bozorining muhim instrumenti sifatida shakllangan. Amerikalik olimlar Stiven A. Dennis va Donald Dj. Mallino sindikatlashgan kreditlarni bank kreditlari va obligatsiya qarzlar o'rtasidagi gibril moliyaviy instrument sifatida ta'riflaydi. Mualliflarga ko'ra, sindikat kreditlar risklarni bir nechta banklar o'rtasida taqsimlash, yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni moliyalashtirish, axborot asimmetriyasini kamaytirish imkonini beradi¹.

Buyuk Britaniya va Shveysariyalik olimlar Y. Altunbash, B. Gadanec, A. Kara sindikat kreditlarni xalqaro kapital harakatida muhim mexanizm sifatida baholab, uni kredit munosabatlari va bozor qarzlar integratsiyasi sifatida ko'radi. Ularning fikricha, bu instrument transmilliy investitsiyalarni jalb qilishda strategik ahamiyatga ega².

Sindikatlashtirilgan kreditlashning nazariy va tashkiliy asoslari Rossiya olimlari A.A. Tarasov, T.O. Yakubova, I.A. Balyuk va boshqalar kabi mualliflarning ilmiy nashrlarida aks etgan. Asarlarda vaqtinchalik bank konsolidatsiyasi shakllarining qiyosiy tavsifi berilgan, ulardan biri sindikatdir; investitsiya kredit bozorlaridan xalqaro moliyalashtirishni jalb qilish bo'yicha bitimlar turlari keltirilgan³.

So'nggi yillarda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda obligatsiyalar bozori ahamiyati ortib bormoqda. Portugaliyalik olimlar Paulo Alcarva va boshqalar yashil obligatsiyalarni davlat budjetiga bosimni kamaytirish, barqaror infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, institutsional investorlarni jalb qilish uchun samarali instrument sifatida baholaydi. Bu tendensiyalar infratuzilma obligatsiyalari global moliya bozorining tez rivojlanayotgan segmentiga aylanganini ko'rsatadi⁴.

O'zbekistonda investitsion kreditlashni rivojlantirish masalasi milliy olimlar tomonidan ham keng o'rganilmoqda. N. Karimov va J. Razzoqov tadqiqotlarida O'zbekistonda va jahon amaliyotida sindikatli kreditlashning tashkiliy va huquqiy asoslari taqqosiy tadqiq etilib, mavjud muammolar bayon etilgan va muammolarni bartaraf etish hamda sindikatli kreditlash tizimini takomillashtirish bo'yicha mualliflik xulosalari va takliflari berilgan⁵. D. Xujamkulov tadqiqotlarida investitsion kreditlash iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Muallif bank kreditlari sanoat, infratuzilma, eksport salohiyatini oshirish uchun muhim manba ekanini qayd etadi. O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlar bank kreditlari va iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi⁶.

Shu bilan birga, yangi sharoitda sindikatlashtirilgan kreditlashni rivojlantirish muammolari hamda infratuzilma obligatsiyalarini emissiya qilish evaziga infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish masalalari ilmiy tadqiqotlarda hali yetarlicha ko'rib chiqilmagan.

- 1 Dennis, S. A., & Mullineaux, D. J. (2000). Syndicated loans. *Journal of Financial Intermediation*, 9(4), 404–426. https://www.researchgate.net/publication/4789290_Syndicated_Loans
- 2 Altunbaş, Y., Gadanecz, B., & Kara, A. (2006). Syndicated loans: A hybrid of relationship lending and publicly traded debt. Palgrave Macmillan. <https://link.springer.com/book/10.1057/9780230597235>
- 3 Тарасов А.А. Управленческий анализ инструментов привлечения международного финансирования // Управление. – 2020. – № 2. – с. 57-62. – doi: 10.26425/2309-3633-2020-2-57-62., Якубова Т.О. Проблемы рынка синдицированного кредитования // Colloquium Journal. – 2019. – № 26-9(50). – с. 211-212., Балюк И.А. Мировой рынок синдицированных кредитов: современное состояние, структура и тенденции развития // Вестник Финансового университета. – 2016. – № 4(94). – с. 98-104.
- 4 Alcarva, P., et al. (2026). Green bonds and sustainable infrastructure financing. *Sustainability*, 18(2), 898. <https://www.mdpi.com/2071-1050/18/2/898>
- 5 Н.Каримов, Ж.Раззоқов. Инвестицион лойиҳаларни синдикатли кредитлар ҳисобига молиялаштиришнинг ташкилий ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil.
- 6 Хужамкулов, Д. (2023). Тижорат банклари томонидан инвестицион кредитлаш тизимидаги ислохотлар. <https://www.researchgate.net/publication/377240804>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Yirik sanoat, infratuzilma va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli va katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab etiladi. Bunday resurslarni faqat yakka bank tomonidan moliyalashtirish imkoniyati cheklanganligi sababli xalqaro amaliyotda sindikatlashgan kreditlar keng qo'llaniladi.

Sindikatlashgan kredit — bu bir nechta banklar yoki moliya institutlari tomonidan bitta yirik qarz oluvchiga birgalikda taqdim etiladigan kredit hisoblanadi. Uning asosiy xususiyatlari: kredit bir nechta banklar tomonidan beriladi; bitta yetakchi bank mavjud bo'ladi; risklar ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi; kredit hajmi yirik bo'ladi va muddati uzoq bo'ladi. Sindikatlashtirilgan kreditning kamchiliklari orasida uzoq davom etadigan jarayon, standart korporativ kreditlarga qaraganda qarz oluvchilarga nisbatan qat'iyroq talablar va sindikatni tashkil etish hamda bitimni amalga oshirish bilan bog'liq sezilarli qo'shimcha xarajatlar, shuningdek, tashkilotchi, agent, bukmeker va boshqa sindikat ishtirokchilari uchun komissiya to'lovlari kiradi. Shunga qaramay, sindikatlashtirilgan kreditlar uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilishning samarali vositasi sifatida hozirda, ayniqsa yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda sezilarli rivojlanish salohiyatiga ega.

Global sindikatlashgan kredit bozori 1970-yillarning boshlaridan boshlab, hozirgi shaklida esa 1990-yillardan boshlab rivojlandi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, sindikatlashtirilgan kreditlar 2000-yillarning boshlaridan beri butun dunyo bo'ylab moliyaviy bo'lmagan korporatsiyalarning barcha transchegaraviy moliyalashtirishining taxminan to'rt dan uch qismini tashkil etgan. Sindikatlashtirilgan kreditlar korxonalarni qo'shilishi va sotib olishlarni moliyalashtirishda, eksportni moliyalashtirishda va loyihalarni moliyalashtirishda keng qo'llaniladi (1-jadval)⁷.

1-jadval. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda sindikatlashgan kreditlar hajmining YAIMga nisbatan ulushi, foizda⁸

Mamlakatlar	Yillar				
	2017	2018	2019	2020	2021
AQSH	11.8	12.8	13.9	7.8	11.7
Kanada	13.9	14.9	15.2	8.2	16.1
Fransiya	4.4	5.7	9.3	8.2	6.0
Singapur	12.7	11.9	14.2	11.6	13.4
Buyuk Britaniya	7.6	7.6	8.0	7.3	5.7

1-jadvalga ko'ra, 2017–2021-yillarda sindikatlashgan kreditlarning YAIMdagi ulushi mamlakatlar kesimida quyidagi tendensiyalarni ko'rsatadi: rivojlangan mamlakatlarda sindikatlashgan kreditlar iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Kanada va Singapurda ulush yuqori va barqaror saqlangan. Kanada butun davr mobaynida eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, 2021-yilda 16,1 foizga yetgan. Bu mamlakatda korporativ moliyalashtirishda sindikat kreditlari faol qo'llanilishini ko'rsatadi. AQSHda 2020-yilda pandemiya ta'sirida keskin pasayish kuzatilgan (7,8 foiz), ammo 2021-yilda tiklanish boshlangan (11,7 foiz). Fransiya va Buyuk Britaniyada ko'rsatkichlar nisbatan past va o'zgaruvchan bo'lib, bu mamlakatlarda moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi yuqori ekanini anglatadi. 2020-yilda barcha mamlakatlarda pasayish kuzatilishi pandemiyaning global kredit bozoriga salbiy ta'sirini tasdiqlaydi. 2021-yilda aksariyat davlatlarda qayta tiklanish tendensiyasi boshlangan. Umuman, jahonda sindikatlashgan kreditlar iqtisodiyotni moliyalashtirishning muhim va iqtisodiy sikllarga juda sezgir instrument ekanligi namoyon bo'ladi.

7 Ушанов, А. Е. Синдицированное кредитование: новые вызовы / А. Е. Ушанов // Экономика, предпринимательство и право. – 2023. – Т. 13, № 11. – С. 4823-4834. – DOI 10.18334/epp.13.11.119681

8 Жаҳон банки маълумотлари асосида тайёрланди. <https://databank.worldbank.org/source/global-financial-development/Series/GFDD.DM.12#>

2-jadval. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda sindikatlashgan kreditlar hajmining YaIMga nisbatan ulushi, foizda⁹

Mamlakatlar	Yillar				
	2017	2018	2019	2020	2021
Braziliya	0,8	1.4	2.7	1.0	1.3
Xitoy	1.2	0.9	4.5	1.2	1.1
Indoneziya	2.2	1.8	1.8	1.3	1.3
Hindiston	2.0	1.1	1.7	1.4	0.9
Rossiya	0,8	0,4	1.9	1.5	2.0

2-jadval ma'lumotlarida ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda sindikatlashgan kreditlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi berilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sindikatlashgan kreditlarning YAIMdagi ulushi rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha past va o'zgaruvchanligini kuzatish mumkin. Masalan, Xitoyda 2019-yilda keskin o'sish (4,5 foiz) kuzatilgan bo'lib, bu davrda yirik infratuzilma va korporativ loyihalarni moliyalashtirish faollashganini ko'rsatadi. So'ngra, pandemiya davrida ushbu ko'rsatkich pasaygan. Indoneziya va Hindistonda sindikatlashgan kreditlar ulushi nisbatan barqaror, ammo past darajada saqlanib qolgan (1–2 foiz atrofida), bu sindikat kreditlar hali to'liq rivojlanmaganini anglatadi. Braziliyada 2019-yilda (2,7 foiz) yuqori o'sishdan keyin 2020-yilda (1,0 foiz) keskin pasayish pandemiya ta'sirini tasdiqlaydi. Rossiyada 2020–2021-yillarda o'sish kuzatilib, 2021-yilda 2 foizga yetgan, bu tashqi va ichki moliyalashtirish manbalariga ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi. Umuman, rivojlanayotgan mamlakatlarda sindikatlashgan kredit bozori hali shakllanish bosqichida bo'lib, tashqi iqtisodiy shoklarga sezgir va nobarqaror ekani namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda sindikatlashgan kreditlashni tashkil etish asoslari dastlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2005-yilning 16-iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sindisiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi nizom va 2010-yilning 6-noyabrda unga kiritilgan o'zgarishlar bilan tartibga solingan. Bugungi kunda ushbu faoliyat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2025-yilning 18-dekabrda 3730-sonli «Banklar tomonidan sindikatlashgan kreditlarni ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori asosida tartibga solinadi (3-jadval).

3-jadval. Tijorat banklari kredit portfelida sindikatlashgan kreditlar miqdori¹⁰

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Jami kreditlar miqdori (mlrd.so'm)	320 813	390 049	471 406	533 121	604 002
Sindikatlashgan kreditlar miqdori (mlrd.so'm)	4 558	4 730	5 539	4 785	4 768
Jami kreditlardagi ulushi, %	1,4	1,2	1,2	0,89	0,7

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda O'zbekistonda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlar bozori shu vaqtgacha shakllanish bosqichida bo'lib, umumiy tendensiyani quyidagicha baholash mumkin: birinchidan, tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2025-yilda 604 trln so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan qariyb 2 barobarga o'sgan. Bu bank tizimi va investitsiya muhiti faolligining yuqori darajasini ko'rsatadi; ikkinchidan, tahlil qilinayotgan davrda sindikatlashgan kreditlar hajmi nisbatan barqaror bo'lib, 2021-yilda 4,56 trln so'mdan 2025-yilda 4,77 trln so'mga yetdi. Ammo jami kreditlardagi ulushi kamayib, 1,4 foizdan 0,7 foizgacha tushdi. Bu holat sindikat kreditlar bozori hali jadal rivojlanmaganligini va uning umumiy kredit portfelida kichik ulushga ega ekanligini ko'rsatadi. Sindikatlashgan kreditlar bozorida tendensiyalar ikki fazali rivojlanishni ko'rsatadi: dastlab, 2021–2023-yillarda bozor shakllanish bosqichi xalqaro moliya institutlari ishtirokining ortgani bilan izohlansa, 2024–2025-yillarda sindikatlashgan kreditlar ulushining pasayishiga bozor faolligining stagnatsiyasi, valyutalar va tashqi moliyalashtirish sharoitlari ta'sir o'tkazgan.

Sindikatlashgan kreditlar iqtisodiyotda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun katta va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, bank tizimida risklarni taqsimlash va kapital yetarililigi ta'minlash, sanoatni

9 Жаҳон банки маълумотлари асосида тайёрланди. <https://databank.worldbank.org/source/global-financial-development/Series/GFDD.DM.12#>

10 Ўзбекистон Марказий банки маълумотлари асосида тайёрланди. <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/575245/>



modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish hamda multiplikativ ta'sir orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda sindikatlashgan kreditlar hozircha umumiy kredit bozorining kichik qismi hisoblansa-da, ular asosiy kapital investitsiyalarini moliyalashtirishning strategik instrumenti sifatida ahamiyatlidir. 2025-yildan keyin bu bozorning institutsional rivojlanishi va xalqaro moliya institutlari ishtiroki orqali ulushi oshishi va investitsiya loyihalari uchun asosiy moliyaviy kanalga aylanishi kutilmoqda. Shundan kelib chiqib, yirik investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish, risklarni adolatli taqsimlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, eksportni oshirish va barqaror ishlab chiqarish zanjirini tezlashtirish maqsadida tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun 3 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilgacha bo'lgan muddatga sindikatlashgan kreditlar ajratish maqsadga muvofiqdir. Natijada katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiluvchi yirik infratuzilma va sanoat loyihalarini sindikatlashgan uzoq muddatli kreditlar hisobiga moliyalashtirish imkoni yaratiladi hamda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslar tanqisligi bartaraf etilib, loyihaviy risklar ta'siri yumshatiladi. Xalqaro amaliyotda yirik sanoat loyihalarining o'rtacha investitsiya sikli 7–10 yilni tashkil etadi. Bu davrda loyiha barqaror pul oqimi hosil qilmaydi. Shu sababli 3 yillik imtiyozli davr muhim ahamiyat kasb etib, bu davrda ushbu imtiyoz likvidlik bosimini kamaytiradi, defolt xavfini pasaytiradi va kredit qaytarish ehtimolini oshiradi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli infratuzilma va asosiy kapitalga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishda an'anaviy bank kreditlari imkoniyatlari cheklangan. Bank resurslarining asosiy qismi qisqa va o'rta muddatli depozitlardan tashkil topganligi sababli yirik investitsiya loyihalarini uzoq muddatga moliyalashtirishda likvidlik va muddatlar nomutanosibligi muammosi yuzaga keladi. Shu boisdan, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati ortib bormoqda.

Tahlillar infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish amaliyotini joriy etish investitsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu moliyaviy instrument, avvalo, uzoq muddatli moliya resurslarini shakllantirish imkonini beradi. Infratuzilma loyihalari yuqori kapital sig'imi va uzoq qaytarish muddatiga ega bo'lgani sababli, ularni moliyalashtirishda 10–20 yillik resurslar muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilma obligatsiyalari aynan shunday uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkonini yaratadi. Ikkinchidan, infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytirishga xizmat qiladi. An'anaviy holatda infratuzilma loyihalari davlat mablag'lari yoki davlat kafolati asosida moliyalashtiriladi. Bu esa budjet xarajatlarining ortishi va davlat qarzi o'sishiga olib kelishi mumkin. Obligatsiyalar orqali xususiy investorlarni jalb qilish esa infratuzilmani moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi moliyaviy mas'uliyatni muvozanatlashtiradi. Uchinchidan, mazkur instrument milliy kapital bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilma obligatsiyalari fond bozorida uzoq muddatli va nisbatan past riskli aktiv sifatida institutsional investorlar — pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va tijorat banklari uchun jozibador hisoblanadi. Bu esa ichki moliyaviy bozorning chuqurlashishi va aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. To'rtinchidan, infratuzilma obligatsiyalari hisobidan jalb etilgan mablag'lar yangi asosiy fondlarni xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilishga yo'naltirilishi mumkin. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiyotda investitsiyalarning multiplikativ ta'siri yuzaga keladi. Shu bilan birga, infratuzilmaga investitsiya kiritish logistika, transport, energetika va kommunal xizmatlar sifati yaxshilanishi orqali xususiy sektor faoliyati uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Jahondagi so'nggi tadqiqotlarga ko'ra, global infratuzilma obligatsiyalari bozori 2024-yilda 1,36 trillion AQSH dollariga yetgan, bu esa yirik ko'lamli infratuzilma loyihalariga davlat va xususiy investitsiyalarning ko'payishi bilan bog'liq kuchli o'sishni aks ettiradi. Bozor 2025-yildan 2033-yilgacha 7,2 foiz yillik o'sish sur'ati bilan o'sishi kutilmoqda, uning umumiy qiymati 2033-yilga kelib 2,57 trillion AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sish barqaror va bardoshli infratuzilmaga bo'lgan talabning ortishi, yashil va munisipal obligatsiyalarning ko'payishi va rivojlanayotgan hamda rivojlangan mamlakatlarda qulay tartibga solish muhiti bilan bog'liq¹¹.

Mintaqaviy nuqtayi nazardan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (540 mlrd AQSH dollari) va Shimoliy Amerika (375 mlrd AQSH dollari) global infratuzilma obligatsiyalari bozorida yetakchilik qiladi, 2024-yilda umumiy emissiyaning 60 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining ustunligi Xitoy, Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyodagi keng ko'lamli urbanizatsiya tashabbuslari bilan qo'llab-quvvatlanadi, Shimoliy Amerika esa infratuzilmani yangilash dasturlari va Qo'shma Shtatlar hamda Kanadada yashil obligatsiyalarning tarqalishidan foyda ko'rmoqda. Yevropa qat'iy barqarorlik qoidalari va transchegaraviy infratuzilma loyihalari bilan boshqariladigan asosiy bozor bo'lib qolmoqda, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Afrika esa hukumatlar muhim infratuzilma ehtiyojlarini qondirish uchun muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini izlayotgan bir paytda

11 Прогноз рынка инфраструктурных облигаций. https://dataintelo.com/report/infrastructure-bonds-market/?utm_source=chatgpt.com




asta-sekin o'sib bormoqda. Mintaqaviy iqtisodiy dinamika, tartibga solish muhiti va investorlarning afzalliklarining o'zaro ta'siri 2033-yilgacha infratuzilma obligatsiyalari bozorining raqobatbardosh landshaftini shakllantirishda davom etadi.

4-jadval. Dunyo mintaqalarida infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar oqimi (mlrd.AQSh dollari)¹²

Mintaqalar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Osiyo	31,42	28,65	28,42	30,82	35,66
Afrika	18,25	15,57	15,13	17,36	16,63
Yevropa	8,45	10,56	8,9	9,06	5,51
Lotin Amerikasi va karib dengizi	3,49	3,95	3,5	4,85	8,79
Okeaniya	0,88	0,95	0,9	1,13	0,65

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo mintaqasi dunyoda infratuzilma loyihalari uchun eng katta va barqaror sarmoya oqimiga ega. 2019-yilda infratuzilma loyihalariga 31,42 mlrd AQSH dollari sarflangan bo'lsa, 2023-yilda 35,66 mlrd AQSH dollariga yetgan. Afrika mintaqasida sarmoya oqimi nisbatan o'rtacha darajada bo'lib, yildan-yilga kichik o'zgarishlar bilan kamaygan. Bu mintaqada infratuzilma sarmoyalari barqaror, lekin katta o'sish kuzatilmaydi. Yevropa mintaqasida ham pasayish tendensiyasi qayd etilgan. Bu mintaqada pandemiya va iqtisodiy cheklovlar infratuzilma loyihalariga sarmoyalarni cheklaganini ko'rsatadi. Lotin Amerikasi va Karib dengizi mintaqasi 2019-yilda 3,49 mlrd AQSH dollari miqdorida sarmoya oqimi yo'naltirilgan bo'lsa, 2023-yilda 8,79 mlrd AQSH dollariga teng bo'lib, eng yuqori o'sishni qayd etdi. Bu mintaqada infratuzilma va energiya loyihalariga keng miqyosda sarmoya kiritilayotganligini ko'rsatadi. Okeaniya mintaqasida infratuzilma sarmoyalari juda past bo'lib, bu mintaqada sarmoyalar cheklangan va pasayish tendensiyasi saqlanmoqda.

O'zbekiston infratuzilma sarmoyalari tendensiyasi 2019–2023-yillarda o'sishni ko'rsatmoqda, jumladan, 2019-yilda 0,90 mlrd AQSH dollari miqdorida mablag' sarflangan. Albatta, bu davrda mablag'lar nisbatan kamligi infratuzilma loyihalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish bilan tushuntiriladi. 2020-yilda pandemiya qaramay, sarmoyalar o'sgan, bu davlat va xalqaro investitsiyalar ta'sirini ko'rsatadi. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich kamaygan, bunda pandemiyaning ikkinchi to'liqini va iqtisodiy cheklovlar ta'siri sezilgan. 2022-yilda esa 1,51 mlrd AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanib, o'sish kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar oqimi (mlrd.AQSh dollari)¹³

¹² OECD ma'lumotlari. https://ourworldindata.org/grapher/total-oda-for-infrastructure-by-recipient?mapSelect=UN_ASI~UN_AFR~UN_EUR~UN_LAC

¹³ OECD ma'lumotlari asosida tayyorlangan. https://ourworldindata.org/grapher/total-oda-for-infrastructure-by-recipient?mapSelect=UN_ASI~UN_AFR~UN_EUR~UN_LAC



Infratuzilma, transport va energetika loyihalari uchun mablag'lar oshgan. 2023-yilda ham o'sish davom etgan, infratuzilma sohasi uchun sarmoyalar yanada kengaygan. Umuman olganda, 2019–2021-yillarda sarmoyalar nomutadil o'zgargan, asosan pandemiya va global iqtisodiy vaziyat ta'siri sezilgan. 2022–2023-yillarda investitsiya oqimi sezilarli o'sishni ko'rsatgan. Bu O'zbekistonning infratuzilma sohasini rivojlantirish va yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi faolligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra, infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish amaliyotini joriy etish investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning muhim vositasi ekanligi aniqlandi. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni samarali moliyalashtirishda infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish amaliyotini yo'lga qo'yish orqali yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan xarajatlarni moliyalashtirishni takomillashtirish taklif etiladi, natijada iqtisodiyotning real sektoridagi infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash amalga oshiriladi. Mazkur instrument uzoq muddatli investitsiya resurslarini shakllantiradi, davlat budjetiga tushadigan moliyaviy yukni kamaytiradi, kapital bozorini rivojlantiradi, asosiy fondlarni yangilash va takror ishlab chiqarishni rag'batlantiradi hamda iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TALIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida infratuzilma va real sektorni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini keskin oshirish zarur. Davlat budjeti va an'anaviy bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanganligi sharoitida sindikatlashgan kreditlar va infratuzilma obligatsiyalari mexanizmlarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirish tizimi hozirgi kunda asosan bank kreditlariga yuqori darajada bog'liq bo'lib, kapital bozorining ishtiroki yetarli darajada shakllanmagan. Uzoq muddatli infratuzilma loyihalari uchun mos moliyalashtirish manbalari cheklanganligi investitsiya faolligini to'liq namoyon etishga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sindikatlashgan kreditlar orqali banklar o'rtasida risklarni taqsimlash va infratuzilma obligatsiyalari orqali uzoq muddatli institutsional investorlarni jalb qilish investitsiyalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi: birinchidan, sindikatlashgan kreditlar tizimini rivojlantirish uchun maxsus huquqiy va institutsional muhitni shakllantirish zarur. Bu banklar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kredit risklarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi; ikkinchidan, infratuzilma obligatsiyalari bozorini shakllantirish uzoq muddatli moliyaviy resurslar manbasini yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Soliq imtiyozlari, davlat kafolatlari va kredit kafolatlash mexanizmlarini joriy etish orqali institutsional investorlarni faol jalb qilish mumkin; uchinchidan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida aralash moliyalashtirish modelini joriy etish infratuzilma loyihalari risklarini kamaytiradi va xususiy kapital ishtirokini rag'batlantiradi; to'rtinchidan, loyihalarni tayyorlash sifatini oshirish uchun loyihalarni tayyorlash markazini tashkil etish bankbop investitsiya loyihalari sonini ko'paytirishga xizmat qiladi; beshinchidan, valyuta, siyosiy va qurilish risklarini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish investorlar ishonchini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, sindikatlashgan kreditlar va infratuzilma obligatsiyalari mexanizmlarini rivojlantirish O'zbekistonda investitsiyalarni moliyalashtirishning zamonaviy bozor mexanizmlariga asoslangan yangi modelini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish, davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytirish, xususiy sektor ishtirokini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dennis, S. A., & Mullineaux, D. J. (2000). Syndicated loans. *Journal of Financial Intermediation*, 9(4), 404–426. https://www.researchgate.net/publication/4789290_Syndicated_Loans
2. Altunbaş, Y., Gadanecz, B., & Kara, A. (2006). Syndicated loans: A hybrid of relationship lending and publicly traded debt. *Palgrave Macmillan*. <https://link.springer.com/book/10.1057/9780230597235>
3. Тарасов А.А. Управленческий анализ инструментов привлечения международного финансирования // Управление. – 2020. – № 2. – с. 57-62. – doi: 10.26425/2309-3633-2020-2-57-62.
4. Якубова Т.О. Проблемы рынка синдицированного кредитования // *Colloquium Journal*. – 2019. – № 26-9(50). – с. 211-212.
5. Балюк И.А. Мировой рынок синдицированных кредитов: современное состояние, структура и тенденции развития // *Вестник Финансового университета*. – 2016. – № 4(94). – с. 98-104.
6. Alcarva, P., et al. (2026). Green bonds and sustainable infrastructure financing. *Sustainability*, 18(2), 898. <https://www.mdpi.com/2071-1050/18/2/898>



7. Н.Каримов, Ж.Раззоқов. Инвестицион лойиҳаларни синдикатли кредитлар ҳисобига молиялаштиришнинг ташкилий ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019-yil.
8. Хужамкулов, Д. (2023). Тижорат банклари томонидан инвестицион кредитлаш тизимидаги ислохотлар. <https://www.researchgate.net/publication/377240804>
9. Ушанов, А. Е. Синдицированное кредитование: новые вызовы / А. Е. Ушанов // Экономика, предпринимательство и право. – 2023. – Т. 13, № 11. – С. 4823–4834. – DOI 10.18334/epp.13.11.119681
10. Жаҳон банки маълумотлари. <https://databank.worldbank.org/source/global-financial-development/Series/GFDD.DM.12#>
11. Ўзбекистон Марказий банки маълумотлари. <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/575245/>
12. Прогноз рынка инфраструктурных облигаций. https://dataintelo.com/report/infrastructure-bonds-market/amp?utm_source=chatgpt.com
13. OECD маълумотлари https://ourworldindata.org/grapher/total-oda-for-infrastructure-by-recipient?mapSelect=UN_ASI~UN_AFR~UN_EUR~UN_LAC



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>